MARTIN MIDOVSNING “365 DAYS WITH SELF-DISCIPLINE” ASARIDA ANTONIMIK TARJIMANING QO‘LLANILISHI.

Abdullayeva Sevinch Akbar qizi
Termiz Davlat universiteti talabasi
E-mail: sabdullaeva185@gmail.com
Ramazonov Shohruh Nusratillo o’g’li
Termiz davlat universiteti o’qituvchisi
E-mail:rshakhrookh@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida tarjimonlar duch keladigan tarjimonlik transformatsiyalarining bir turi bo‘lgan antonimik tarjimadan qanday foydalanish haqida so‘z boradi.

Annotation: This article discusses how to use antonymic translation, a type of translation transformation that translators encounter in the process of translating literary works.

Kalit so‘zlar: Tarjima, transformatsiya, antonimik tarjima, til, grammatik, inkor, tasdiq, grammatik konstruksiya, misollar, ingliz tili, o‘zbek tili.

Key words: Translation, transformation, antonymic translation, language, grammar, negation, affirmation, grammatical construction, examples, English language, Uzbek language.

Tarjimani biz juda katta bilim va ko‘p mehnat talab qiladigan ko‘p qirrali bir faoliyat deb bilamiz. Ammo shuni ham e’tibordan qochirmaslik lozimki, bu ishga ixlos bilan yondashishga shaylangan tarjimonlar uchun aniq ishlangan uslubiy yo‘riqnoma yohud tarjimada aniqlikka erishish borasida qat’iy bir to‘xtamning o‘zi yo‘q. Tarjimada aniqlik tarjima asarning asliyatga nechog‘li yaqinligida, ya’ni adekvat ekanligida namoyon bo‘ladi. Tarjima – bu tillararo transformatsiyalar majmuasidir, chunki bir tildan ikkinchi

tilga biror parchani o‘girganda biz bevosita manba (source language) tilidagi matn mazmunini tarjima tiliga (target language) ko‘chiramiz, ya’ni transformatsiya qilamiz. Transformatsiya - (lotincha) o‘zgartirish, almashtirish degan ma’nolarni ifodalaydi, tarjimada ularning leksik, stilistik va grammatik turlarini uchratamiz. [3]

Tarjima jarayonida tarjimonlik transformatsiyalarining almashtiruv turi ko‘p qo‘llaniladi. Shu bilan birga antonimik tarjima yani, almashtiruvning bir turiga ham ko‘p duch kelinadi.Antonimik tarjima o‘zi nima? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin, antonimik tarjima - tarjima jarayonida keng qo‘llaniladigan kompleks leksik-grammatik almashtiruvdir. Bunda tasdiq grammatik konstruksiya inkor grammatik konstruksiyaga, yoki aksincha, inkor konstruksiya tasdiq konstruksiyaga almashtiriladi. Shu bilan birga asl matndagi biror so‘z tarjima tilida uning antonimiga almashtiriladi (odatda “antonym” so‘zi bir tilning so‘zlariga nisbatan qo‘llaniladi; biz esa bu yerda “antonym” so‘zini ikki tilning - asl matn tili va tarjima tilining ma’nolari qarama qarshi bo‘lgan so‘zlarni ifodalash uchun qo‘llaymiz.[1.P30].

Martin Midovsning “365 days with Self-Discipline” asarida ham antonimik tarjimaning qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan:

1.*It’s possible that when your efforts result in a failure, you’ll lose the self-discipline to continue and revert back to your old undesirable habits*. [2.P40]

Hatto, harakatlaringiz muvaffaqiyatsizlikka olib kelganida, intizomingiz susayib, eski zararli odatlarga qaytishingiz ham ehtimoldan xoli emas.

It is possible-ehtimoli bor = ehtimoldan holi emas

2. *I failed to learn how to play tennis despite putting considerable amount of time, energy, and money into it.* [2.P40]

Masalan, men tennis o‘ynashni o‘rganishga ko‘p vaqt, kuch va mablag‘ sarflaganimga qaramay, muvaffaqiyatga erisha olmadim.

to fail - yutqazmoq = muvaffaqiyatga erisha olmaslik

3. *Be a hard master to yourself— and be lenient to everybody else.* [2.P41]

O‘zingizga rahmdil boshqaruvchi bo‘lmang, va boshqalarga nisbatan yumshoq bo‘ling.

Be a hard master - qattiqqo‘l boshqaruvchi bo‘ling => rahmdil boshqaruvchi bo‘lmang.

4. *If you act in accordance with the standards of the majority of people, you'll be overweight, unfit, unhealthy, lazy, hating your job, not having enough time for your family, and in debt.* [2.P41]

Agar siz ko‘pchilikning standartlariga muvofiq harakat qilsangiz, ehtimol, semirib ketasiz, sog‘lig‘ingiz yomonlashadi, dangasa bo‘lasiz, ishini yaxshi ko‘rmaydigan, oilasiga vaqt topa olmaydigan va qarzga botgan odamga aylanasiz.

hating your job - ishini yomon ko‘radigan = ishini yaxshi ko‘rmaydigan.

Bu misollarda ingliz tasdiq grammatik konstruksiya o‘zbek tilida inkor konstruksiyaga almashtirildi, yoki buning aksi ro’y berdi. Birinchi gapda *“It is possible”* (ehtimoli bor) iborasi uning o’zbekcha antonimi *“ehtimoldan holi”*ga almashtirildi. Ikkinchi misolda *“to fail”* (yutqazmoq) fe’li o’zbek tiliga *“muvaffaqiyatga erishmoq”*ga almashtirildi. Uchinchi misolda esa, *“hard master”* (qattiqqo’l boshqaruvchi) so’zi o’zbek tiliga *“rahmdil boshqaruvchi”* deya ifoda etildi. So’ngi misolimizda *“hating your job”* (ishini yomon ko’radigan) iborasi o’zbek tiliga *“ishini yaxshi ko’rmaydigan”* shaklida almashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayonida ma’no va mazmun jihatidan muqobillikka erishish maqsadida, antonimik tarjima kabi tarjimonlik transformatsiyalaridan foydalanishiga to‘g‘ri keladi. Zero, tarjima matnining badiiy bo’yoqdorligi, tarjimaning o’quvchiga to’liq mazmunda yetkazib berilishi ushbu jarayonlarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allayorova.R.R, Tarjima nazariyasi va amaliyoti, Urganch-2008.

2. Martin Meadows 365 Days with Self-Discipline.

3.https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/download/2375/2171/4398

4. Wisdom, electronic dictionary app version: 3.2.4

5.Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. JournalNX, 40-43.

6.Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story “A Christmas Carol” by Charles Dickens into uzbek. ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ, 34.

7. Kamoljnovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. Central

Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343.

https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343

8. Odil o’g’li, J. M., & Mamarajabovna, O. S. (2023). THE CONCEPTUAL STRUCTURE OF MODERN LINGUISTICS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 771-773.